

AGROSANOAT TARMOQLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO
STANDARTLARINI QO‘LLASH MUAMMOLARI

Xusinov Hamid Qalandarovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Toshkent filiali o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada agrosanoat korxonalarida MSFO 41 "Qishloq xo'jaligi" standartini qo'llash jarayonida yuzaga keladigan nazariy va amaliy muammolar tahlil qilingan. Biologik aktivlarni adolatli qiymat bo'yicha baholash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tan olish va o'lchash, ma'lumotlarni ochib berish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalarida standartni samarali joriy etish uchun takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *MSFO 41, biologik aktivlar, adolatli qiymat, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsuloti, agrosanoat, moliyaviy hisobot.*

Abstract. *The article analyzes theoretical and practical problems that arise in the process of applying IFRS 41 "Agriculture" standard in agro-industrial enterprises. The issues of fair value measurement of biological assets, recognition and measurement of agricultural products, and disclosure of information are considered. The results of the study provide proposals for the effective implementation of the standard.*

Keywords: *IFRS 41, biological assets, fair value, agriculture, agricultural products, agro-industry, financial reporting.*

Annotatsiya. *V state analiziruyutsya teoreticheskie i prakticheskie problemy, voznikayuyushe v protsesse primeneniya standarta IFRS 41 «Selskoe xozyaystvo» na agropromyshlennyyh predpriyatiyax. Rassmatrivayutsya voprosy otsenki biologicheskoy stoimosti aktivov po spravedlivoy stoimosti, priznaniya i otsenki selskoxozyaystvennoy produktsii, a takje raskrytiya informatsii. Rezultaty issledovaniya sodержat predlozheniya po effektivnomu vnedreniyu standarta.*

Klyuchevyye slova: *IFRS 41, biologicheskie aktivy, spravedlivaya stoimost, selskoe xozyaystvo, selskoxozyaystvennaya produktsiya, agropromyshlennost, finansovaya otchetnost.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash va agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu sohada xalqaro standartlarga asoslangan moliyaviy hisobotni joriy etish korxonalarining moliyaviy holati haqida shaffof va ishonchli axborot olishga imkon beradi.

MSFO 41 "Qishloq xo‘jaligi" standarti 2001 yilda qabul qilingan bo‘lib, biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hisobga olish uchun maxsus me‘yorlarni

belgilaydi. Standartning asosiy maqsadi - qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining moliyaviy hisobotida biologik transformatsiya jarayonlarini aks ettirishdir.

Adabiyotlar tahlili. MSFO 41 standartini qo‘llash masalalari xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Elad (2004) biologik aktivlarni adolatli qiymat bo‘yicha baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Argilés va Slof (2001) standart talablarining amaliyotda qo‘llanilishini tahlil qilgan. Herbohn va Herbohn (2006) Avstraliyada standartni joriy etish tajribasini o‘rgangan.

Rossiya olimlaridan Klychova, Fakhretdinova va Zakirova (2015) MSFO 41 ni qishloq xo‘jaligi korxonalarida qo‘llash muammolarini o‘rgangan. Mamedova (2019) biologik aktivlarni boshqarish hisobida aks ettirish usullarini takomillashtirgan.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda Nurmuhamedov N.N., Usmonov A.A., Rahimova Z.M. kabi olimlar hisobot standartlarini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish masalalari ustida ishlamoqdalar. Ammo MSFO 41 standartini qo‘llashning o‘ziga xos muammolari yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan: sistemali tahlil, qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rovnoma, keys-stadi, statistik tahlil. Tadqiqot bazasi sifatida Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi 15 ta agrosanoat korxonasi tanlangan. Ma‘lumotlar 2020-2023 yillar uchun to‘plangan.

Tahlil va natijalar.

1. Biologik aktivlarni tan olish va baholash muammolari. MSFO 41 ga muvofiq, biologik aktivlar dastlabki tan olinganda va har bir hisobot sanasida adolatli qiymat bo‘yicha, sotish xarajatlarini chegirish yo‘li bilan baholanadi. Agrosanoat korxonalarida bu printsiptni qo‘llashda quyidagi muammolar aniqlandi:

Birinchidan, ko‘pgina biologik aktivlar uchun faol bozor mavjud emas. Masalan, o‘sh kelayotgan don ekinlari, yosh meva daraxtlari yoki go’sht uchun boqilayotgan mollarning o‘rtacha o‘shish davrida bozor qiymati yoq. Bu holatda korxonalar diskontlangan pul oqimlari usulidan foydalanishga majbur bo‘ladi, bu esa yuqori darajada sub’ektiv baholashni talab qiladi.

Ikkinchidan, adolatli qiymatni aniqlashda qo‘llaniladigan diskont stavkasini tanlash masalasi mavjud. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘rib chiqilgan korxonalarining 67% i diskont stavkasini aniqlashda bir xil yondashuvga ega emas. Stavka 8% dan 15% gacha o‘zgarib turadi, bu moliyaviy natijalarning qiyoslanuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jadval 1. Biologik aktivlarni baholash usullarining qo‘llanilishi (N=15 korxonalar)

Baholash usuli	Korxonalar soni	Ulush (%)
Bozor qiymati	5	33,3
Diskontlangan pul oqimlari	7	46,7
Aralash usul	3	20,0

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Uchinchidan, biologik transformatsiya jarayonini hisobotda aks ettirish murakkabligi. Qishloq xo‘jaligida biologik aktivlarning qiymati faqat bozor kon’yunkturasi tufayli emas, balki tabiiy o‘rinish (transformatsiya) natijasida ham o‘zgaradi. MSFO 41 bu o‘zgarishlarni daromad yoki zarar sifatida tan olishni talab qiladi, bu esa moliyaviy natijalarning o‘zgaruvchanligini oshiradi.

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotini tan olish masalalari. MSFO 41 standarti biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti o‘rtasida aniq farq qiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti - bu biologik aktivdan ajratish nuqtasida yig‘ib olingan mahsulot. Masalan, sut, terilgan g‘alla, kesilgan o‘tin.

Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatildi:

- Ajratish nuqtasini aniqlash murakkabligi. Ayrim holatlarda (masalan, meva yetkishishida) ajratish nuqtasi aniq bo‘lsa, boshqa holatlarda (masalan, sut mahsulotlarini qayta ishlashda) bu nuqtani aniqlash qiyin.

- Ajratish nuqtasidan keyin mahsulotga MSFO 2 "Zaxiralar" standarti qo‘llaniladi. Bu o‘tish jarayoni korxonalar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi.

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotining adolatli qiymatini hisoblashda sotish xarajatlarini aniqlash masalasi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korxonalarining 53% i sotish xarajatlarini qiyosiy asosda baholaydi, bu esa aniqlikni pasaytiradi.

3. Ma‘lumotlarni ochib berish muammolari. MSFO 41 standarti moliyaviy hisobotda keng ko‘lamli ma‘lumotlarni ochib berishni talab qiladi. Korxonalar quyidagilarni ochib berishi kerak:

- Biologik aktivlarning turlari bo‘yicha muvofiqlashtirish;

- Adolatli qiymatni aniqlashda qo‘llanilgan usullar va asosiy taxminlar; - Adolatli qiymatni ishonchli baholab bo‘lmaydigan biologik aktivlar mavjudligi;

- Davlat grantlari bo‘yicha ma‘lumotlar.

Amaliyotda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

Birinchidan, korxonalarining 40% i standart talablariga to‘liq rioya qilmaydi. Ayniqsa, adolatli qiymatni aniqlash usullari va taxminlarni ochib berishda yetishmovchiliklar kuzatiladi.

Ikkinchidan, ma‘lumotlarning sifati past. Ko‘pincha umumiy, standart sharhlar beriladi, bu esa foydalanuvchilarga korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini baholashga imkon bermaydi.

Uchinchidan, ma‘lumotlarning qiyoslanuvchanligi muammosi. Turli korxonalar turli usullardan foydalanganligi sababli, ularning natijalarini qiyoslash qiyin.

4. Buxgalterlar malakasi va axborot tizimlari. Anketa so‘rovi natijalari shuni ko‘rsatdiki, agrosanoat korxonalarida MSFO 41 standartini qo‘llashning muhim to‘siqlaridan biri buxgalterlarning yetarli malakaga ega emasligidir. Respondentlarning 73% i MSFO 41 bo‘yicha qo‘shimcha ta‘lim olish zarurligini ta‘kidladi.

Bundan tashqari, mavjud buxgalteriya dasturiy ta‘minoti MSFO 41 talablarini to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi. Korxonalarining 60% i biologik aktivlarni hisobga olish uchun qo‘shimcha hisob-kitoblar va ko‘chirmalar tuzishga majbur.

Jadval 2. MSFO 41 standartini qo‘llashdagi asosiy muammolar (buxgalterlar fikriga ko‘ra, N=45)

Muammo	Respondentlar ulushi (%)
Adolatli qiymatni aniqlash qiyinchiligi	82
Yetarli malaka yo‘qligi	73
Dasturiy ta‘minot yetishmovchiligi	60
Ma‘lumotlarni ochib berish murakkabligi	56
Davlat tartibga solishlari bilan moslashtirish	47

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Muhokama. Tadqiqot natijalari MSFO 41 standartini agrosanoat tarmoqlarida qo‘llashda bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu muammolar faqat O‘zbekiston uchun emas, balki boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham xosdir.

Biologik aktivlarni adolatli qiymat bo‘yicha baholash muammosi xalqaro miqyosda ham muhokama qilinmoqda. Ba‘zi olimlar (Herbohn, 2006; Elad, 2007) adolatli qiymat usulining afzalliklarini, boshqalari esa (Argilés, 2001) unga tanqidiy yondashadilar.

Biz tomonimizdan olib borilgan tahlil va olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida MSFO 41 standartini samarali qo‘llash uchun quyidagi choralar zarur:

Xulosa va takliflar. MSFO 41 "Qishloq xo‘jaligi" standarti agrosanoat korxonalarining moliyaviy hisobotini tuzishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, standartni qo‘llashda qator nazariy va amaliy muammolar mavjud.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Biologik aktivlarning faol bozori yo‘qligi adolatli qiymatni aniqlashda sub‘ektiv baholashlarga olib keladi. Diskontlangan pul oqimlari usuli keng qo‘llansa ham, diskont stavkasini tanlashda bir xillik yo‘q.

2. Korxonalarining yarimdan ko‘pi MSFO 41 talablari bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘liq ochib bermaydi, bu moliyaviy hisobotning shaffofligini pasaytiradi.

3. Buxgalterlarning malaka darajasi va dasturiy ta‘minotning imkoniyatlari standartni samarali qo‘llashga to‘siq bo‘lmoqda.

Quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Metodologik qo‘llanmalar ishlab chiqish. Moliya vazirligi huzuridagi Buxgalteriya hisobi va audit nazorati agentligi tomonidan MSFO 41 standartini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha batafsil qo‘llanma tayyorlash lozim. Qo‘llanmada turli biologik aktivlar uchun adolatli qiymatni aniqlash usullari, amaliy misollar keltirilishi kerak.

2. Bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Biologik aktivlar uchun faol bozorlarni tashkil etish, narx kotirovkalarini dunyo bozori narhlarini tahlil qilgan holda rivojlantirish zarur.

3. Kadrlar tayyorlash. MSFO 41 bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etish, buxgalterlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga standartni kiritish.

